



## THE INTERRELATION BETWEEN THE PARADIGM OF MORAL VALUES AND THE CONCEPT OF THE VIRTUOUS SOCIETY IN THE PHILOSOPHY OF ABU NASR AL-FARABI

*Dildor Akmalovna Pulatova*

*Candidate of Philosophical Sciences, Professor Alfraganus University*

*Professor of the Department of Social Sciences*

*E-mail: [falsafa2009@gmail.com](mailto:falsafa2009@gmail.com)*

*Tashkent, Uzbekiston*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Abu Nasr al-Farabi, moral values, knowledge, faith, virtue, personal perfection, happiness, virtuous city, justice.

**Received:** 25.12.25

**Accepted:** 26.12.25

**Published:** 27.12.25

**Abstract:** This article examines the essence and theoretical foundations of the paradigm of moral values in Abu Nasr al-Farabi's philosophy through the unity of knowledge, faith, moral excellence, personal perfection, and virtuous city. Morality is interpreted not as a set of external behavioral rules but as an integral philosophical system that enables the attainment of the highest end - happiness - through rational cognition, inner conviction, and the practical cultivation of virtues. The study argues that knowledge provides the primary basis for moral understanding, faith stabilizes this understanding as an internal value orientation, and virtuous character constitutes the practical embodiment of the unity between knowledge and faith. It is shown that virtues are formed through education, conscious choice, and repeated practice, while the doctrine of the "mean" serves as a criterion of moral maturity. Within the framework of the "virtuous city" doctrine, justice is analyzed as the central principle of the moral value system, linking knowledge, faith, and virtue and guiding the direction of social perfection. The findings contribute to a deeper understanding of al-Farabi's ethical thought in the context of contemporary philosophical research.

**ABU NASR FAROBIY FALSAFASIDA AXLOQIY QADRIYATLAR PARADIGMASI  
VA “FOZIL JAMIYAT” KONSEPSIYASINING O‘ZARO ALOQADORLIGI****Dildor Akmalovna Pulatova***Alfraganus Universiteti “Ijtimoifanlar” kafedrasini professori**falsafa fanlari nomzodi**E-mail: [falsafa2009@gmail.com](mailto:falsafa2009@gmail.com)**Toshkent, O‘zbekiston*

---

**MAQOLA HAQIDA**

---

**Kalit so‘zlar:** Abu Nasr Farobiy, axloqiy qadriyatlar, ilm, e‘tiqod, husni xulq, fazilat, shaxs kamoloti, saodat, fozil jamiyat, adolat.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Abu Nasr Farobiy falsafasida axloqiy qadriyatlar paradigmasining mohiyati va nazariy asoslari inson kamolotiga yo‘naltirilgan ilm – e‘tiqod – husni xulq (fazilat) – fozil jamiyat birligi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda axloq tashqi me‘yorlar majmuasi sifatida emas, balki insonning aqliy bilishi, ichki ishonchi va amaliy fazilatlarini orqali saodatga yetishini ta‘minlovchi yaxlit falsafiy tizim sifatida talqin etiladi. Farobiy ta‘limotida ilm axloqiy anglashning asosiy sharti, e‘tiqod mazkur bilishning ma‘naviy barqarorligini ta‘minlovchi omil, husni xulq esa ilm va e‘tiqodning amaliy ifodasi sifatida asoslanishi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, fazilatlarining tarbiya, ongli tanlov va takrorlanuvchi amallar orqali shakllanishi hamda o‘rta me‘yor tamoyilining axloqiy yetuklik mezoni sifatidagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada «fozil jamiyat» ta‘limoti doirasida adolat tushunchasi axloqiy qadriyatlar tizimining markaziy tamoyili sifatida izohlanib, adolatning ilm, e‘tiqod va fazilatni birlashtiruvchi universal qadriyat ekani asoslanadi. Olingan natijalar Farobiy axloqiy ta‘limotini zamonaviy falsafiy tadqiqotlar kontekstida chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

---

**ВЗАИМОСВЯЗЬ ПАРАДИГМЫ НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ И КОНЦЕПЦИИ  
«ДОБРОДЕТЕЛЬНОГО ОБЩЕСТВА» В ФИЛОСОФИИ АБУ НАСРА АЛЬ-  
ФАРАБИ****Дилдор Акмаловна Пулатова***Кандидат философских наук, профессор**Университет Альфраганус**профессор кафедры «Социальные науки»**E-mail: [falsafa2009@gmail.com](mailto:falsafa2009@gmail.com)**Ташкент, Узбекистан*

## О СТАТЬ

**Ключевые слова:** Абу Наср аль-Фараби, нравственные ценности, знание, вера, добродетель, личностное совершенство, счастье, добродетельное общество, справедливость.

**Аннотация:** В статье анализируется сущность и теоретические основания парадигмы нравственных ценностей в философии Абу Насра аль-Фараби в рамках единства «знание – вера – добродетель – личностное совершенство – добродетельное общество». Нравственность рассматривается не как совокупность внешних норм поведения, а как целостная философская система, обеспечивающая достижение высшей цели – счастья – через рациональное познание, внутреннюю убежденность и практическое воплощение добродетелей. Показано, что знание выступает исходным основанием нравственного понимания, вера закрепляет это понимание в духовной сфере личности, а добродетель представляет собой практическое выражение единства знания и веры. Раскрывается, что добродетели формируются посредством воспитания, сознательного выбора и повторяющихся действий, а принцип «средней меры» выступает критерием нравственной зрелости. В контексте учения о «добродетельном обществе» обосновывается трактовка справедливости как центрального принципа системы нравственных ценностей, связывающего знание, веру и добродетель, а также определяющего направление общественного совершенствования. Полученные результаты способствуют более глубокому осмыслению этического учения аль-Фараби в современном философском контексте.

**Kirish.** Axloqiy qadriyatlar masalasi falsafa tarixida insonning qanday yashashi lozimligi, yaxshilik va yomonlik mezonlari, inson kamolotiga yetaklovchi omillar haqidagi asosiy nazariy muammolardan biri hisoblanadi. Sharq falsafasi doirasida mazkur masala inson va jamiyatning ma'naviy yetukligi bilan bog'liq holda maxsus tadqiq etilgan bo'lib, Abu Nasr Farobiy bu yo'nalishda yaxlit falsafiy tizim yaratgan mutafakkirlardan sanaladi. Uning asarlarida axloq faqat tashqi xulq-atvor me'yorlari bilan cheklanmay, insonning aqliy tabiati, ijtimoiy mohiyati va oliy maqsadi bilan uzviy bog'liq kategoriya sifatida talqin qilinadi [1; 2].

Farobiy ta'limotida inson hayotining oliy maqsadi saodatga yetish bilan ifodalanadi va bu maqsadga erishish insonning aqliy hamda axloqiy yetukligiga bog'liq qilib qo'yiladi [1]. Shu

ma'noda, Farobiy axloqiy qadriyatlarni inson kamolotiga yo'naltirilgan ilm – e'tiqod – husni xulq (fazilat) – fozil jamiyat birligi doirasida tushuntirishga imkoniyat beruvchi nazariy asoslarni shakllantiradi. Unda ilm yaxshilik va adolat mohiyatini anglashning poydevori bo'lsa, e'tiqod mazkur anglashning ichki ishonchga aylanishini ta'minlaydi, husni xulq esa ilm va e'tiqodning amaliy ifodasi sifatida insonda barqaror fazilatlarni qaror toptiradi [2; 3]. Bunday yondashuv Farobiy axloqiy ta'limotini uning ijtimoiy falsafasi, ayniqsa «fozil jamiyat» modeli bilan bir butun holda tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi [1; 6].

Maqolaning dolzarbligi shundaki, zamonaviy ijtimoiy hayotda adolat, ma'naviy barqarorlik va jamiyat kamoloti masalalari yanada keskin ahamiyat kasb etmoqda. Farobiyning «fozil jamiyat» haqidagi ta'limoti doirasida adolatni markaziy qadriyat sifatida talqin qilishi, uni axloqiy fazilat va ijtimoiy tartibning mezoni sifatida uyg'unlashtirishi bugungi falsafiy tadqiqotlar uchun muhim nazariy manba bo'la oladi [6; 9]. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada Farobiy falsafasida axloqiy qadriyatlar paradigmasining mohiyati va nazariy asoslari hamda «fozil jamiyat» ta'limotida adolat tushunchasining talqini ilmiy-mantiqiy jihatdan yoritiladi.

Maqolaning maqsadi Abu Nasr Farobiy falsafasida axloqiy qadriyatlar ilm – e'tiqod – husni xulq (fazilat) – inson kamoloti– fozil jamiyat birligiga tayanishini asoslash hamda «fozil jamiyat» modeli doirasida adolat tushunchasining mazkur paradigma nuqtai nazaridan talqinini ochib berishdan iborat.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqot Abu Nasr Farobiy falsafasida axloqiy qadriyatlar paradigmasini ilmiy tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda kompleks falsafiy metodologiya qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida mantiqiy-tahliliy, tarixiy-falsafiy, qiyosiy va tizimli yondashuvlar o'zaro uyg'un holda qo'llanildi.

Avvalo, mantiqiy-tahliliy metod orqali Farobiy asarlaridagi asosiy axloqiy tushunchalar - ilm, e'tiqod, husni xulq (fazilat), saodat va adolat kategoriyalarining mazmuni, o'zaro bog'liqligi va ichki mantiqiy tizimi ochib berildi. Ushbu metod Farobiy axloqiy ta'limotining ichki tuzilishi va uning falsafiy paradigma sifatida shakllanish jarayonini anglashga imkon berdi.

Tarixiy-falsafiy va qiyosiy metodlar yordamida Farobiyning axloqiy qarashlari Sharq falsafasi an'analari, ayniqsa antik falsafa (Aristotel axloq ta'limoti) bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilindi. Bu yondashuv Farobiyning axloqiy konsepsiyasi qanday intellektual muhitda shakllanganini va uning yangiligini aniqlashga xizmat qildi.

Tizimli yondashuv metodi tadqiqotning metodologik asosini tashkil qilib, Farobiy falsafasida axloqiy qadriyatlarni alohida elementlar emas, balki inson kamoloti va ijtimoiy taraqqiyotga yo'naltirilgan yaxlit falsafiy tizim sifatida ko'rib chiqishga imkon berdi. Xususan, ilm – e'tiqod – husni xulq (fazilat) – saodat uzviy birligi va uning «fozil jamiyat» modeli bilan bog'liqligi shu metod orqali ochib berildi.

Shunday qilib, qoʻllanilgan metodologiya Farobiy axloqiy taʼlimotini nazariy jihatdan chuqur va izchil tahlil qilish, uning inson kamoloti va jamiyat rivojidadagi oʻrnini ilmiy asoslash imkonini berdi.

**Adabiyotlar sharhi.** Abu Nasr Farobiyning axloqiy falsafasi va «fozil jamiyat» taʼlimoti islom falsafasi hamda Sharq ijtimoiy-axloqiy tafakkuri tarixida muhim oʻrin egallaydi. Uning merosi turli davrlarda ham manba sifatida, ham mustaqil tadqiqot obʼekti sifatida oʻrganib kelingan.

Farobiyning axloqiy qarashlari eng avvalo uning asl manba asarlarida bayon etilgan. «Oroʻ ahli al-madinat al-fozila» asarida fozil jamiyat modeli, unda adolat, saodat va fazilatlarning ijtimoiy ahamiyati tizimli ravishda asoslanadi [1]. «Tahsili saodat» asarida esa inson kamoloti, ilm va axloqning oʻzaro bogʻliqligi markaziy masala sifatida yoritiladi [2]. «Axloq va siyosatga oid risolalar» Farobiyning axloqiy fazilatlar, oʻrta meʼyor va iroda masalalariga munosabatini ochib beradi [3].

Farobiy axloqiy taʼlimotining falsafiy manbalari va antik meros bilan bogʻliq jihatlari Aristotelning «Nikomax axloqi» asari bilan qiyosiy tadqiq etilgan [4]. Bu asar Farobiyda oʻrta meʼyor, fazilat va saodat gʻoyalarining shakllanishini anglashda nazariy asos vazifasini oʻtaydi.

Farobiyning umumfalsafiy qarashlari «Falsafiy risolalar» majmuasida yaxlit tizim sifatida namoyon boʻlib, unda bilish, axloq, aql va borliq masalalari oʻzaro bogʻliq holda tahlil qilinadi [5]. «On the Perfect State» asari esa Farobiyning fozil jamiyat haqidagi taʼlimotini gʻarb ilmiy anʼanalarida tadqiq qilishga asos boʻlgan [6].

Oʻzbekistonlik faylasuf-olimlar orasida akademik M.M. Xayrullaev Farobiy axloqiy qarashlarini inson aqliy tabiati va ijtimoiy masʼuliyati bilan bogʻliq holda talqin qiladi [8]. Professor H. Aliqulov Farobiyning ijtimoiy-maʼnaviy merosini jamiyat kamoloti nuqtai nazaridan tahlil qilgan [9]. Professor M. Qodirov esa Farobiy falsafasini Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq falsafiy tafakkuri kontekstida oʻrganib, axloqiy qadriyatlarni shaxs va jamiyat rivojini bogʻlovchi asosiy mexanizm sifatida koʻrsatadi [10].

Adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, mavjud tadqiqotlarda Farobiy axloqiy taʼlimoti alohida jihatlar kesimida yoritilgan. Biroq ilm – eʼtiqod – husni xulq (fazilat) – inson kamoloti birligi va adolatning «fozil jamiyat» modelidagi markaziy oʻrnini yaxlit paradigma sifatida ochib berish masalasi yetarli darajada tizimli tahlil qilinmagan. Mazkur maqola aynan shu boʻshliqni toʻldirishga qaratilgani bilan mavjud adabiyotlardan farq qiladi.

**Muhokama va natijalar.** Abu Nasr Farobiy falsafasida axloqiy qadriyatlar masalasi inson kamolotiga yoʻnaltirilgan ilm – eʼtiqod – husni xulq (fazilat) – fozil jamiyat birligi doirasida shakllangan yaxlit falsafiy paradigma sifatida namoyon boʻladi. Faylasuf axloqni faqat tashqi xulq-atvor meʼyorlari yoki shaxsiy odob masalasi sifatida emas, balki insonning bilish qobiliyati,

ichki ishonchi va amaliy fazilatlari orqali oliy maqsadga yetishini ta'minlovchi tizim sifatida talqin qiladi. Shu ma'noda, Farobiyning axloqiy qarashlari uning antropologik, gnoseologik va ijtimoiy falsafasi bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Farobiy ta'limotida axloqiy qadriyatlar paradigmasining boshlang'ich nuqtasi ilm hisoblanadi. Faylasuf insonni aqlli mavjudot sifatida ta'riflab, uning axloqiy yetukligi uning ilmi bo'lishiga va to'g'ri fikrlashiga asoslanishini ta'kidlaydi. Inson yaxshilik va yomonlikni aynan ilm orqali anglaydi, borliq va maqsad haqida to'g'ri tasavvur hosil qiladi hamda o'z amaliyotini ongli ravishda baholaydi [2]. Shu sababli, Farobiy falsafasida axloq aqliy bilishdan ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi.

Biroq Farobiy fikricha, inson uchun faqat ilmning o'zi yetarli emas. Ilm inson hayotida barqaror axloqiy yo'nalish kasb etishi uchun u e'tiqod bilan uyg'unlashishi lozim. E'tiqod inson ongida shakllangan axloqiy bilishning ichki ishonchga aylanishi, uning ma'naviy dunyosida mustahkam qaror topishini ta'minlaydi. Shu ma'noda, e'tiqod ilm bilan husni xulq o'rtasidagi bog'lovchi ma'naviy halqa vazifasini bajaradi. Farobiy fikricha, ilmga tayanmagan e'tiqod yoki e'tiqod bilan mustahkamlanmagan bilim insonni haqiqiy axloqiy kamolotga olib kelmaydi.

Farobiy ta'limotida ilm va e'tiqod birligi husni xulq, ya'ni axloqiy fazilatlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Faylasuf fazilatlarni tug'ma holat emas, balki insonning ongli tanlovi, tarbiyasi va takrorlanuvchi amallari natijasida qaror topadigan barqaror axloqiy sifat sifatida talqin qiladi [3]. Inson ma'lum axloqiy amallarni ilmiy anglab, e'tiqod asosida bajarib borishi orqali fazilatlarga ega bo'ladi. Bu jarayonda iroda va maqsadga yo'naltirilgan faoliyat hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Farobiy axloqiy fazilatlarni o'rta me'yor tamoyili asosida tushuntiradi. Unga ko'ra, har bir fazilat ikki keskin holat – ortiqchalik va kamchilik o'rtasida joylashadi. Masalan, jasorat qo'rqoqlik va behayolik o'rtasidagi muvozanatli holat sifatida namoyon bo'ladi [4]. O'rta me'yorni topish esa insonning aqliy yetukligi va axloqiy ongiga bog'liq bo'lib, u ilm va e'tiqod bilan belgilanadi.

Farobiy falsafasida husni xulq insonni kamolotga yetaklovchi asosiy bosqich hisoblanadi. Inson ilm orqali haqiqatni anglab, e'tiqod orqali uni ma'naviy qadriyatga aylantirib, fazilatlar orqali amalga tatbiq etar ekan, u o'z mohiyatini ro'yobga chiqaradi. Farobiy ta'limotida inson kamoloti saodatga yetish bilan bog'liq bo'lib, saodat insonning aqliy va axloqiy yetuk holatini ifodalaydi [1].

Shu bilan birga, Farobiy axloqiy qadriyatlarni faqat shaxsiy kamolot bilan cheklamaydi. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida jamiyatda yashaydi va kamolotga yetadi. Shu sababli, axloqiy qadriyatlar insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, jamiyat barqarorligini

ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi [5]. Bu g'oya Farobiyning «Fozil shahar ahli ta'limoti» asarida yanada tizimli ravishda rivojlantiriladi [6].

Abu Nasr Farobiy falsafasida «fozil jamiyat» ta'limoti axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy kamolotga ta'sirini ochib beruvchi markaziy nazariy model sifatida shakllanadi. Mazkur ta'limotda jamiyat inson kamolotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy makon sifatida talqin qilinib, uning barqarorligi va mukammalligi a'zolarining ilmiy bilimi, e'tiqodiy barqarorligi, husni xulqi (fazilatlar) va ma'naviy kamoloti bilan belgilanishi ta'kidlanadi. Shu ma'noda, fozil jamiyat tasodifiy ijtimoiy tuzilma emas, balki axloqiy qadriyatlarga asoslangan ongli va maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy munosabatlar sifatida namoyon bo'ladi.

Farobiy insonni o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy mavjudot deb bilib, uning kamoloti faqat jamiyat doirasida amalga oshishini ta'kidlaydi. Biroq insonlarni jamiyatga birlashtiruvchi asosiy omil moddiy manfaat yoki tashqi majburiyat emas, balki umumiy oliy maqsadga intilish hisoblanadi. Bu oliy maqsad fozil jamiyat ta'limotida saodatga erishish bilan ifodalanadi. Saodat esa Farobiy falsafasida yakka shaxsning emas, balki butun jamiyat a'zolarining ilmliligi, e'tiqodiy barqarorligi va axloqiy fazilatlarini uyg'unligi natijasida qaror topadigan oliy holat sifatida talqin qilinadi [1].

Fozil jamiyat ta'limotida ilm ijtimoiy kamolotning boshlang'ich va asosiy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Farobiyga ko'ra, jamiyat a'zolari oliy maqsadni anglash, umumiy manfaatni shaxsiy istaklardan ustun qo'yish va adolat mohiyatini idrok etish uchun to'g'ri bilimga ega bo'lishlari lozim. Ilm insonlarning ijtimoiy mas'uliyatini anglashga, yaxshilik va yomonlik o'rtasida farq qilishga, haq va nohaqni ajratishga xizmat qiladi. Ilmsiz jamiyatda axloqiy qadriyatlar qaror topmaydi, ijtimoiy munosabatlar esa tasodifiy va beqaror tus oladi.

Biroq Farobiy ta'limotida ilm ijtimoiy kamolot uchun yetarli shart emas. Ilm e'tiqod bilan uyg'unlashgandagina jamiyat hayotida barqaror axloqiy yo'nalish kasb etadi. E'tiqod insonlarning ilm orqali anglangan axloqiy qoidalarni ichki ishonch darajasida qabul qilishini ta'minlaydi. Fozil jamiyat a'zolari adolat, yaxshilik va mas'uliyat kabi qadriyatlarni faqat bilish darajasida emas, balki ma'naviy ishonch sifatida qabul qilgan holdagina umumiy saodatga intiladi.

Farobiy ta'limotida ilm va e'tiqod birligi husni xulq, ya'ni axloqiy fazilatlarining ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishiga olib keladi. Fozil jamiyat a'zolari yaxshilik, adolat, o'zaro yordam, insof va mas'uliyat kabi fazilatlarini ongli ravishda namoyon qiladilar. Bunday jamiyatda har bir inson o'z vazifasini shaxsiy manfaatdan kelib chiqib emas, balki umumiy saodat va jamiyat manfaatini ko'zlab bajaradi [2]. Shu tariqa, husni xulq ijtimoiy kamolotning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Farobiy fozil jamiyatni nofozil jamiyatlardan qat'iy ajratadi. Nofozil jamiyatlarda insonlar o'z hayotini lazzat, boylik, hokimiyat yoki shonu-shuhratga ega bo'lish kabi yolg'on maqsadlarga bag'ishlaydilar. Bunday jamiyatlarda ilm haqiqiy oliy maqsadga xizmat qilmaydi, e'tiqod

zaiflashadi, axloqiy fazilatlar esa ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Natijada ijtimoiy kamolotga erishish imkoniyati yo‘qoladi [3]. Demak, jamiyatning fozil yoki nofozil bo‘lishi unda ustuvor bo‘lgan axloqiy qadriyatlar tizimi bilan belgilanadi.

Fozil jamiyat ta‘limotida adolat axloqiy qadriyatlar tizimining markaziy tamoyili sifatida namoyon bo‘ladi. Farobiy adolatni faqat huquqiy yoki siyosiy kategoriya sifatida emas, balki insonning ichki axloqiy yetukligi, fazilatlar va ijtimoiy mas‘uliyatini ifodalovchi universal qadriyat sifatida talqin qiladi. Adolat fozil jamiyatda ilm, e‘tiqod va husni xulqni o‘zaro bog‘lovchi asosiy axloqiy mezon hisoblanadi.

Farobiy ta‘limotida adolat ilm bilan bevosita bog‘liq. Unga ko‘ra, adolatli qaror va adolatli munosabat faqat ilmga asoslangan holdagina amalga oshadi. Inson haq va nohaqni, yaxshilik va yomonlikni aynan aqliy bilish orqali farqlaydi. Shu sababli, adolat aqliy bilishga tayanmagan jamiyatda tasodifiy va beqaror tus oladi [9].

Biroq adolat faqat bilish darajasida qolib ketmasligi lozim. Farobiy uchun adolat e‘tiqod bilan mustahkamlanadigan axloqiy qadriyatdir. Agar inson adolatni faqat aqliy jihatdan anglab, uni ichki ishonch sifatida qabul qilmasa, u amaliy hayotda adolatli bo‘la olmaydi. Shu ma‘noda, e‘tiqod adolatni inson ma‘naviy dunyosida barqaror qadriyatga aylantiradi.

Farobiy falsafasida adolat husni xulq, ya‘ni axloqiy fazilat sifatida insonning amaliy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Adolatli inson o‘z manfaatini emas, balki umumiy manfaatni ko‘zlab harakat qiladi, boshqalar haqqiga tajovuz qilmaydi va jamiyatda muvozanatni saqlashga intiladi. Faylasuf adolatni fazilatlarining eng muhimi sifatida baholab, uning yo‘qligi barcha boshqa axloqiy fazilatlarining zaiflashuviga olib kelishini ta‘kidlaydi [1; 2].

Fozil jamiyatda adolat ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy tamoyil hisoblanadi. Farobiyga ko‘ra, jamiyatda har bir inson o‘z qobiliyati va vazifasiga muvofiq o‘rniga ega bo‘lishi adolatning amaliy ifodasidir. Agar vazifalar noto‘g‘ri taqsimlansa yoki inson mehnati qadrlanmasa, jamiyatda nizo va nofozil holatlar yuzaga keladi [1]. Demak, adolat ijtimoiy kamolotning asosiy sharti hisoblanadi.

Farobiy fozil jamiyat rahbarida adolat fazilatining alohida ahamiyatga ega ekanini ta‘kidlaydi. Rahbar ilmi, e‘tiqodli va adolatli bo‘lmasa, jamiyatda axloqiy qadriyatlar o‘z ta‘sirini yo‘qotadi. Adolatli rahbar jamiyat a‘zolari uchun axloqiy namuna bo‘lib xizmat qiladi va ijtimoiy kamolotga to‘g‘ri yo‘nalish beradi [1].

Shu tariqa, Farobiyning «fozil jamiyat» ta‘limotida adolat ilm – e‘tiqod – husni xulq (fazilat) – inson kamoloti o‘rtasidagi uzviy birlikni ta‘minlovchi markaziy axloqiy tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi. Adolatsiz jamiyat fozil bo‘la olmaydi, adolatsiz inson esa haqiqiy kamolotga yeta olmaydi. Farobiy ushbu ta‘limoti orqali inson kamoloti va jamiyat rivoji o‘rtasidagi chuqur ichki bog‘liqlikni mukammal falsafiy tizim sifatida asoslab beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari Abu Nasr Farobiy falsafasida axloqiy qadriyatlar paradigmasi ilm – e'tiqod – husni xulq (fazilat) – fozil jamiyat inson kamoloti o'rtasidagi uzviy birlik asosida shakllanishini ilmiy jihatdan asosladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Farobiy axloqni tashqi odob qoidalari majmuasi sifatida emas, balki insonning bilish qobiliyati va ichki ishonchi orqali amaliy fazilatlar hosil qilishini ta'minlaydigan, shu orqali saodatga yo'naltiruvchi yaxlit falsafiy tizim sifatida talqin qiladi [1; 2].

Tadqiqotda Farobiy ta'limotida ilm axloqiy qadriyatlar paradigmasining boshlang'ich poydevori ekani aniqlandi. Inson yaxshilik va yomonlikni, maqsad va vositani to'g'ri anglashi hamda o'z amaliyotini ongli baholashi aynan aqliy bilishga bog'liq ekani ko'rsatildi [2]. Biroq ilmning o'zi axloqiy barqarorlikni kafolatlamasligi, u faqat e'tiqod bilan uyg'unlashgandagina shaxs va jamiyat hayotida mustahkam qadriyatga aylanishi ilmiy jihatdan asoslandi. E'tiqod ilm bilan husni xulq o'rtasida ma'naviy bog'lovchi halqa vazifasini bajarib, axloqiy bilishni ichki ishonch va mas'uliyatga aylantiradi [2; 3].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ilm va e'tiqod birligi Farobiy ta'limotida husni xulq (fazilat)ning shakllanish manbai sifatida namoyon bo'ladi. Fazilatlar tug'ma emas, balki insonning ongli tanlovi, tarbiya va takrorlanuvchi amallari orqali qaror topadigan barqaror axloqiy sifatlar ekani ochib berildi [3]. Shu bilan birga, Farobiyning o'rta me'yor (muvozanat) tamoyiliga tayangan holda fazilatni ortiqchalik va kamchilik o'rtasidagi eng maqbul nuqta sifatida izohlashi axloqiy yetuklik mezoni sifatida ko'rsatildi [4].

Tadqiqot davomida Farobiy falsafasida inson kamoloti saodatga yetish g'oyasi bilan bevosita bog'liq ekani, saodat esa insonning aqliy va axloqiy yetukligiga tayanadigan oliy holat sifatida talqin qilinishi aniqlandi [1]. Shu ma'noda, axloqiy qadriyatlar insonni kamolotga yetaklovchi vosita bo'lib, ularning ijtimoiy mazmuni ham alohida ahamiyat kasb etishi ko'rsatildi: inson ijtimoiy mavjudot sifatida kamolotga faqat jamiyat doirasida yetadi, axloqiy qadriyatlar esa jamiyat barqarorligini ta'minlovchi tartibga soluvchi omil vazifasini bajaradi [5; 6].

Ikkinchi muhim natija sifatida, «fozil jamiyat» ta'limotida axloqiy qadriyatlar ijtimoiy kamolotning ichki mezoni ekani asoslandi. Farobiy jamiyatni umumiy oliy maqsad – saodatga yo'nalgan holda birlashadigan tizim deb ko'rsatishi, fozil jamiyatning mukammalligi esa a'zolarining ilmliligi, e'tiqodiy barqarorligi va axloqiy fazilatlarini uyg'unligi bilan belgilanishi ilmiy jihatdan ochib berildi [1; 6]. Shu bilan birga, nofozil jamiyatlarda yolg'on maqsadlar (lazzat, boylik, shonu shuhrat va hokimiyat) ustuvor bo'lib, bu holat axloqiy qadriyatlarning susayishi va ijtimoiy kamolotning izdan chiqishiga olib kelishi ko'rsatildi [3; 6].

Tadqiqotning eng asosiy natijasi sifatida Farobiyning «fozil jamiyat» ta'limotida adolat tushunchasi axloqiy qadriyatlar paradigmasining markaziy tamoyili ekani asoslandi. Adolat faqat

huquqiy-siyosiy kategoriya emas, balki ilm, e'tiqod va husni xulqni o'zaro bog'lovchi universal axloqiy qadriyat sifatida talqin qilinishi ochib berildi [6; 7]. Adolatning ilmga bog'liqligi (haq va nohaqni aqliy bilish orqali farqlash), e'tiqod bilan mustahkamlanishi (adolatni ichki ishonchga aylantirish) va fazilat sifatida amaliy hayotda namoyon bo'lishi (umumiy manfaatni ko'zlash, muvozanatni saqlash) Farobiy axloqiy tizimining ichki mantiqiy uzviy birligi sifatida ilmiy asoslandi [1;2;3].

Shuningdek, adolatning ijtimoiy kamolot bilan bevosita bog'liqligi – vazifa va mas'uliyatlarning to'g'ri taqsimlanishi, mehnatning qadrlanishi, ijtimoiy muvozanatning saqlanishi bilan ta'minlanishi aniqlandi [1]. Fozil jamiyat rahbarining adolatli bo'lishi esa jamiyat axloqiy muhiti va umumiy kamolot yo'nalishini belgilaydigan hal qiluvchi shart sifatida asoslandi [1;6]. O'zbekistonlik faylasuf-olimlar qarashlari tahlili ham Farobiyda axloqiy qadriyatlar inson kamoloti va jamiyat rivojini bog'lovchi umumiy falsafiy mexanizm ekanini tasdiqlashi ko'rsatildi [8; 9,10].

Natijada, mazkur tadqiqot Farobiy falsafasida axloqiy qadriyatlar paradigmasi ilm – e'tiqod – husni xulq (fazilat) – inson kamoloti birligiga tayanadigan, «fozil jamiyat» modelini esa ushbu birlikning ijtimoiy ifodasi sifatida asoslaydigan yaxlit nazariy tizim ekanini ilmiy jihatdan isbotladi [1; 6].

**Xulosa qilib aytganda,** maqoladagi tahlillar Abu Nasr Farobiy falsafasida axloqiy qadriyatlar inson kamolotiga yo'naltirilgan: ilm – e'tiqod – husni xulq (fazilat) – fozil jamiyat birligi asosida shakllanishini ko'rsatdi. Farobiy uchun axloq tashqi odob me'yorlari emas, balki aqliy bilish, ichki ishonch va amaliy fazilatlar orqali saodatga yetishni ta'minlaydigan yaxlit falsafiy tizimdir [1; 2]. Bu tizimda ilm yaxshilik va yomonlikni anglashga xizmat qiladi, e'tiqod bilishni barqaror qadriyatga aylantiradi, husni xulq esa mazkur birlikning amaliy ifodasi sifatida fazilatlarni qaror toptiradi [2; 3].

Maqolada Farobiy fazilatlarining shakllanishini ongli tanlov, tarbiya va takrorlanuvchi amallar bilan bog'lab, o'rta me'yor tamoyilini axloqiy yetuklik mezoni sifatida asoslashi ochib berildi [3; 4]. Shuningdek, u axloqiy qadriyatlarni shaxsiy kamolot bilan birga ijtimoiy kamolotga ham bog'laydi: inson kamolotga jamiyatda yetadi, qadriyatlar esa jamiyat barqarorligini ta'minlaydi [5;6]. Eng muhimi, «fozil jamiyat» ta'limotida adolat markaziy tamoyil sifatida talqin qilinib, u ilm, e'tiqod va husni xulqni birlashtiruvchi universal qadriyat ekani asoslandi [6; 7].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Farobiy, Abu Nasr. Oro' ahli al-madinat al-fozila («Fozil shahar aholisining qarashlari») / tahrirchi (muhaqqiq) Alber Nasriy Nodir. Bayrut: Dar al-Mashriq, 1993.
2. Farobiy, Abu Nasr. Tahsili saodat («Saodatga erishish») Bayrut: Dar va maktaba al-Hilal, 1995.

3. Farobiy, Abu Nasr. Rasoil fi-l-axloq va-s-siyosa («Axloq va siyosatga oid risolalar»)/ tahqiqi Alber Nasriy Nodir. Bayrut: Dar al-Mashriq, 1993.
4. Aristotle. Nicomachean Ethics. Oxford, 1998.
5. Farobiy, Abu Nasr. Rasoil falsafiya.( « Falsafiy risolalar») Bayrut: Dar va maktaba al-Hilal, 1992.
6. Al-Farabi. On the Perfect State. Oxford: Oxford University Press, 1985.
7. Farobi Abu Nasr. Kitāb al-Siyāsa al-Madaniyya («Madaniy siyosat») / taxqiq Fuod Bunni.– Al-Qohira: Dar as-saqafa, 1964.
8. Xayrullaev M.M. Farabi. – Tashkent: Uzbekistan, 1975.
9. Aliqulov H. Abu Nasr Farobiyning ijtimoiy-ma'naviy merosi. –Toshkent: Noshir. 1971.
10. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o'rta asrlar). Toshkent:TDSHI. 2010.